

O'QUVCHILARNING DEVIANT VA DELINKVENT XULQ-ATVORINI KORREKSIYA QILISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Raximova Nilufar Abduqayumovna

Sirdaryo tuman 33-maktab amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'quvchilarda deviant va delinkvent xulq-atvorning kelib chiqish sabablari, ularni aniqlash mezonlari hamda psixologik korreksiya qilishning asosiy yo'nalishlari yoritilgan. Shuningdek, ta'lim muassasasi, oila va psixologik xizmat hamkorligining ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: deviant xulq, delinkvent xulq, o'quvchi, psixologik korreksiya, profilaktika, ijtimoiy muhit, tarbiya, agressiya, motivatsiya, ijtimoiy moslashuv.

KIRISH

Deviant va delinkvent xulq-atvor o'quvchilarning jamiyatda qabul qilingan me'yor va qoidalardan chetga chiqishi bilan ifodalanadi. Deviant xulq umumiy ijtimoiy normalarga zid bo'lgan xatti-harakatlarni, delinkvent xulq esa huquqiy me'yorlarni buzuvchi harakatlarni o'z ichiga oladi. Bu holatlar o'quvchining shaxsiy rivojlanishiga va ijtimoiy moslashuviga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday xulq-atvorning kelib chiqishiga oilaviy muhitdagi nizolar, e'tiborsizlik, zo'ravonlik, tengdoshlar bosimi, past o'ziga baho berish va ijtimoiy nazoratning sustligi kabi omillar sabab bo'lishi mumkin. Shuningdek, internet va salbiy axborot muhitining ta'siri ham kuchayib bormoqda.

Delinkvent xulq-atvorning yuzaga kelishiga bir qator muhim omillar ta'sir qiladi. Avvalo, oila muhiti asosiy rol o'ynaydi, ya'ni tarbiyaning yetarli emasligi, ota-ona nazoratining sustligi yoki oiladagi doimiy nizolar bola xulqining buzilishiga olib kelishi mumkin. Shuningdek, ijtimoiy omillar ham katta ta'sir ko'rsatadi, jumladan, salbiy do'stlar muhiti, internet va ommaviy axborot vositalarining noto'g'ri ta'siri o'quvchida noto'g'ri qadriyatlar shakllanishiga sabab bo'ladi. Shaxsiy omillar sifatida temperament xususiyatlari, emotsional beqarorlik va o'zini past yoki haddan tashqari yuqori baholash holatlari ham delinkvent xulqning shakllanishiga zamin yaratadi. Bundan tashqari, ta'lim muassasasidagi yetarli psixologik qo'llab-quvvatlashning yo'qligi ham o'quvchining xulqiy rivojlanishiga salbiy ta'sir qiladi.

Bu kabi o'quvchilar bilan ishlashda psixologik-pedagogik korreksiya muhim ahamiyatga ega bo'lib, u kompleks yondashuv asosida amalga oshiriladi. Avvalo, psixodiagnostika orqali o'quvchining shaxsiy xususiyatlari, ichki muammolari va ehtiyojlari aniqlanadi, test, suhbat va kuzatish usullari yordamida individual psixologik xarita tuziladi. Keyingi bosqichda individual psixologik maslahatlar o'tkazilib, o'quvchining hissiy holati va xulqidagi og'ishlar sabablari tahlil qilinadi hamda ularga

yechim topishga yordam beriladi. Shuningdek, xulq-atvorni korreksiya qiluvchi treninglar orqali o'zini boshqarish, muloqot ko'nikmalari va ijtimoiy moslashuv rivojlantiriladi. Ijobiy xatti-harakatlarni rag'batlantirish va mustahkamlash ham muhim bo'lib, bu o'quvchini to'g'ri yo'nalishga undaydi. Eng muhim jihatlardan biri esa oilaviy hamkorlikni yo'lga qo'yish bo'lib, ota-onalarni jarayonga faol jalb etish korreksiya samaradorligini oshiradi.

Albert Banduraning ijtimoiy o'rganish nazariyasiga ko'ra, bolalar va o'smirlar xulq-atvorni kuzatish va taqlid qilish orqali o'zlashtiradilar. Shu sababli salbiy modellarning mavjudligi deviant xulq shakllanishiga olib kelishi mumkin. Deviant va delinkvent xulqni korreksiya qilishda psixologik diagnostika muhim bosqich hisoblanadi. O'quvchining shaxsiy xususiyatlari, emotsional holati, oilaviy sharoiti va ijtimoiy aloqalari chuqur o'rganiladi. Lev Vygotskyning ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasiga ko'ra, shaxsning xulq-atvori ijtimoiy muhit bilan bevosita bog'liq. Shu sababli korreksiya jarayonida ijtimoiy muhitni o'zgartirish va ijobiy muhit yaratish muhim ahamiyatga ega.

Korreksion ishlar tarkibiga individual psixologik maslahatlar, guruhviy treninglar, xulq-atvorni tuzatishga qaratilgan mashg'ulotlar va motivatsion suhbatlar kiradi. Bu usullar o'quvchida ijobiy xulq shakllanishiga yordam beradi. Oila bilan ishlash ham korreksiya jarayonining muhim qismidir. Ota-onalarga tarbiya usullarini to'g'ri qo'llash, bolaga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish va nazoratni muvozanatli olib borish bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Shuningdek, maktab muhitida ijobiy psixologik iqlim yaratish, o'quvchini ijtimoiy foydali faoliyatlarga jalb etish va uning ijobiy qobiliyatlarini rivojlantirish ham samarali korreksiya usullaridan hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, delinkvent xulq-atvoriga ega o'quvchilar muammosi pedagogika va psixologiya sohasida dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Xulq-atvorda og'ishlar, ya'ni jamiyatda qabul qilingan me'yor va qoidalarga zid harakatlar o'smir shaxsining rivojlanishiga, uning ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyatiga hamda ijtimoiy munosabatlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Delinkvent xulq-atvor odatda o'smirlik davrida ko'proq namoyon bo'lib, bu davr shaxsning psixologik jihatdan murakkab, o'zgaruvchan va shakllanish bosqichi hisoblanadi. O'smirlar bu davrda emotsional beqarorlik, mustaqillikka intilish, ijtimoiy rollarni sinab ko'rish kabi holatlarni boshdan kechiradilar. Agar ushbu jarayon to'g'ri psixologik va pedagogik qo'llab-quvvatlanmasa, salbiy xulq-atvor shakllanishi ehtimoli ortadi.

Delinkvent xulq-atvorning yuzaga kelishiga bir qator omillar ta'sir qiladi. Bular qatoriga oiladagi tarbiya muhitining yetarli darajada emasligi, ijtimoiy nazoratning sustligi, tengdoshlar guruhining salbiy ta'siri, shuningdek, o'quvchining shaxsiy psixologik xususiyatlari kiradi. Ayrim hollarda o'quvchilarda agressivlik, o'zini boshqara olmaslik, impulsiv xatti-harakatlar, emotsional barqarorlikning pastligi kabi

holatlar kuzatiladi. Bunday holatlar o'quvchining jamiyatga moslashuvini qiyinlashtiradi va turli xulq og'ishlariga olib keladi. Shu bois, delinkvent xulq-atvorga ega o'quvchilar bilan ishlashda psixologik-pedagogik yondashuvlarning ahamiyati juda katta. Ularni aniqlash, sabablarini o'rganish hamda to'g'ri korreksiya qilish orqali o'quvchining ijobiy xulq-atvorini shakllantirish mumkin. Bu jarayonda maktab psixologi, o'qituvchilar va ota-onalarning hamkorligi muhim o'rin tutadi. Delinkvent xulq-atvorga ega o'quvchilar bilan tizimli va ilmiy asoslangan ish olib borish nafaqat ularning shaxsiy rivojlanishiga, balki jamiyatda sog'lom ijtimoiy muhitni shakllantirishga ham xizmat qiladi. Shu sababli, ushbu muammoni chuqur o'rganish, uning psixologik xususiyatlarini tahlil qilish va samarali korreksiya usullarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Delinkvent xulq-atvorga ega o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini yoritish hamda ularni korreksiya qilishning samarali usullarini tahlil qilishdan iborat.

Delinkvent xulq-atvorga ega o'quvchilar muammosi zamonaviy psixologiya va pedagogikada alohida e'tibor talab etadigan murakkab ijtimoiy-psixologik hodisa hisoblanadi. Bunday xulq-atvor ko'pincha shaxsning ichki psixologik holati, tarbiya muhiti va ijtimoiy omillar ta'sirida shakllanadi. Shu sababli delinkvent xulqning sabablarini va uning psixologik xususiyatlarini chuqur o'rganish samarali korreksion ishlarning asosini tashkil etadi. Delinkvent xulq-atvorga ega o'quvchilarda bir qator tipik psixologik xususiyatlar kuzatiladi. Eng avvalo, ularda emotsional barqarorlikning pastligi va tez qo'zg'aluvchanlik holatlari namoyon bo'ladi. Bunday o'quvchilar kichik stress yoki ijtimoiy bosimga nisbatan keskin reaksiya berishadi, bu esa agressiv yoki impulsiv xatti-harakatlarga olib keladi. Shuningdek, ularda o'zini boshqarish (self-control) ko'nikmalarining zaifligi kuzatiladi. Bu holat o'quvchilarning o'z xatti-harakatlarini ongli nazorat qila olmasligi, oqibatlarini oldindan baholamasligi bilan ifodalanadi. Natijada ular tez-tez qoidalarini buzish, intizomsizlik yoki jamiyat me'yorlariga zid harakatlar sodir etishlari mumkin. Yana bir muhim xususiyat — past darajadagi motivatsiya va o'qishga nisbatan salbiy munosabatdir.

Delinkvent o'quvchilar ko'pincha o'quv jarayoniga befarq bo'lishadi, kelajak maqsadlarini aniq belgilay olmaydilar va ta'limga qiziqishlari sust bo'ladi. Bundan tashqari, bunday o'quvchilarda o'ziga ishonchsizlik yoki aksincha, haddan tashqari o'zini yuqori baholash holatlari ham uchrashi mumkin. Bu ichki nomutanosiblik ularning ijtimoiy munosabatlarida muammolarni keltirib chiqaradi. Ijtimoiy jihatdan esa salbiy tengdoshlar guruhiga moyillik bildiradilar. Ular ijobiy ijtimoiy muhitdan uzoqlashib, noto'g'ri xulq-atvorni qo'llab-quvvatlovchi guruhlariga qo'shilishlari mumkin.

XULOSA

Delinkvent xulq-atvorni bartaraf etishda psixolog va pedagoglar hamkorligi hal qiluvchi ahamiyatga ega, chunki psixolog o'quvchining ichki holatini aniqlab

tavsiyalar bersa, pedagoglar uni ta'lim jarayonida amaliy qo'llaydi. Umuman olganda, bunday o'quvchilar bilan ishlash tizimli, uzluksiz va ilmiy asoslangan yondashuvni talab qiladi. Xulosa qilib aytganda, delinkvent xulq-atvor murakkab psixologik-pedagogik muammo bo'lib, u oila, shaxs va ijtimoiy muhit omillari bilan chambarchas bog'liq. Uni bartaraf etishda individual yondashuv, psixologik qo'llab-quvvatlash va ijobiy muhit yaratish muhimdir. Shu orqali o'quvchining xulqini ijobiy tomonga o'zgartirish va uning jamiyatga moslashuvini ta'minlash mumkin bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Shoumarov G'.B. Oila psixologiyasi. — Toshkent: O'qituvchi, 2010..
2. G'oziev E.G'. Umumiy psixologiya. — Toshkent: Universitet, 2002..
3. Sodiqov A.S. Deviant xulq-atvor psixologiyasi. — Toshkent: Fan, 2018..
4. G'oziyev E. G. Ontogenez psixologiyasi – Toshkent: "Noshir", 2010.
5. Bayyar Dj., Bayyar Dj. Sening og'ir o'smiring. – Moskva: "Progress", 2005.
6. Ziyo.net